

## SAN'AT ASARLARIDA KOMPOZITSIYA VA UNING MUHIM AHAMIYATI

**Ilhomjon Saidazimovich Baxriyev**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi  
o‘qituvchisi

[ilxombaxriyev89@gmail.com](mailto:ilxombaxriyev89@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqlolada Kompozitsiyaning san’at asarlardagi tutgan o‘rni, Kompozitsiyalar negizida yaratilgan kartinalarning bir biriga o‘xshamasligi, ma’lumki san’at borasida juda katta natijalarga erishgan ko‘plab davlatlar mavjudligi, bugungi rassom dunyo san’atida kechayotgan jarayonni bilishi, tushunishi kerakligi, badiiy asarlarning insoniyat tarixidagi qoldirgan izi. Rangtasvir kompozitsiyasining o‘zining matig‘i o‘zining falsafasi mavjudligi atroflicha sharqlanadi

**Kalit so‘zlar:** Badiiy asar, dunyo, san’at, pedagog, jamiyat, inson ,rassom, ijod, tasvir, san’at.

### **KIRISH**

Kompozitsiya juda keng tushuncha. Soddarоq qilib aytganda kompozitsiya hayot ko‘rinishlarining badiylashgan ko‘rinishi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Barcha san’atlar paydo bo‘lishinig asosiy omili yoki umummilliy san’atning jamiki yig‘indisi bu kompozitsiya bilan bog‘liq.

Bugungi rassom Dunyo san’atida kechayotgan jarayonni bilishi tushunishi kerak. Globallashuv muhitida yashar ekanmiz san’at olamiida kechayotgan jarayonlar yurtimizni chetlab o‘ta olmaydi, axborot olish va tarqatish hozirgi kundagi kabi hech qachon bunchalik oson bo‘lmagan. Dunyo san’atida kechayotgan jarayonlar yurtimiz ijodkorlari ijodiiga albatta ta’sir qiladi ya’ni hozirgi ijodiy jarayonlarimizni tashqi dunyo bilan qiyoslashimiz tabiy holat. Xuddi shunday ijodiy jarayonlarni yoki yoshlarni tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda muammolarni anglash va yechim izlashda tashqi dunyo tajribasi o‘rganish yoki ular bilan qiyoslashimiz ham tabiy, shunday holatda ijod kishisining ijodiy kompozitsiyalari o‘ta erkin bo‘lishi davrning o‘zi ko‘rsatib turubdi. Bu holat san’atning yuqori darajadagi zarurat desak bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dunyo san'ati - bu insoniyatning turli davrlarida va hududlarida paydo bo'lgan badiiy ifodalar to'plami hisoblanadi. Dunyo san'ati tarixi - shu badiiy ifodalarning kelib chiqishi, rivojlanishi va ta'siri haqidagi ilmiy tadqiqotdir. Dunyo san'ati tarixi juda keng va murakkab sohadir, chunki u turli madaniyatlar, dinlar, siyosatlar, iqtisodiyotlar va boshqa omillarning ta'sirini o'z ichiga oladi. Dunyo san'ati tarixi o'rganuvchilar uchun muhim bo'lgan asosiy manbalar - bu badiiy asarlar, uning mualliflari, uning mazmuni va shakli, uning ijtimoiy va tarixiy konteksti hisoblanadi.

San'atga nisbatan har bir insonda qiziqish bo'lishi kerak ya'ni shug'ullanish bilan qiziqish o'rtasida chegara bor, qiziqish deganda anglash va munosabat bildira olish darajasidagi tasavvurga ega bo'lish demakdir.

San'at asari bu kompozitsiya, uning zamirida xalqning orzu istaklari, keljakka bo'lgan ishonchi yotadi. San'at asarlarini jamiyatda, ayniqsa yoshlar hayotida tabiyaviy ahamiyati yuksak darajada.

Evropa va bir qancha davlatlar san'ati o'ta professionallashgan. Chunki ushbu davlatlarda katta maktab va milliy badiy boylik yaratilgan. Jamiyat ilm fan va san'at borasida kuchli an'ana yaratar ekan, bu jamiyatlarda juda kuchli maktablar mavjud bo'ladi, va tarixdan ma'lumki bunday jamiyatlar fojea yuz bergan taqdirda ham tezda tiklana olgan.

Rassom ijodkor va San'atshunos o'rtasida fundamental farq bor. Ijodkor san'at asarlarini kompozitsion jihatdan fikrlaydigan, ranglari va o'z uslubi orqali vujudga keltiradigan shaxs. U o'zining hayotiy tajribasidan, va mafkurasidan kelib chiqib tasviriy san'at asarlarini jamiyatga taklif qiladi, albatta u qabul qilinishi va qilinmasligi doirasida hayotga singib boraveradi. San'atshunos bu rassom emas, san'atshunos san'atdagi jarayonlarni, hodisalarini rassomlarni tushuna olishi kerak bo'lgan va jamiyatga tushuntirib beradigan shaxslar, ya'ni u asarni talqin qiladi, sharhlaydi va o'rganadi.

Dunyo davlatlari san'atining rivojlanishi bir-biridan katta farq qilgan. Ma'lumki san'at borasida juda katta natijalarga erishgan ko'plab davlatlar mavjud. Uning ichki sabablari ya'ni ulardagi ichki mexanizmning tog'ri yo'lga qoyilganidir.

Demak yoshlar ta'limiga jiddiy e'tibor berish bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda ya'ni an'anaviy o'qitish metodlari yoshlarni qoniqtira olmayapti chunki axborot oqimi jadallahib ketgan bir davdni boshdan kechirmoqdamiz.

Jamiyat rivojlangan sari insonlarda san'atga nisbatan qiziqish uyg'onadi va san'atning rivojlanishiga turtki beradi. Albatta bu holat san'atning kengayishiga va raqobatni paydo bo'lishiga olib keladi.

Rangtasvir kompozitsiyasining o‘zini matig‘i o‘zini falsafasi mavjud, san’at asarini palotnoga ko‘rsata olish albatta bu ijodkor kompozitsiyasi hisoblanib uni ko‘rgazmalarda namoyish etiladi.

Tasviriy san’at asari albatta insonni chuqur mulohaza qilishga zavqlanishga tasavvurini boyitishga, halqlar tarixining bir bo‘lagi sifatida o‘z qadr qimmatiga ega bo‘ladi va halqning ma’naviy boyligiga aylanadi.

Rangtasvirda biror asar yaratilar ekan albatta kompozitsiya qonun va qoidalaridan foydalaniladi. bu asarda ijodkorning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va vazifalarini olib berishga xizmat qiladi V.M.Jirmunskiy aytganidek Kompozitsiyani tadqiq qilishdan maqsad, asarning tashqi tuzilishini aniqlaydigan badiylik asoslarini topishi, undagi badiy materialni taqsimlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat.

San’atni doimiy rivojlanishda bo‘lishi bu erkin ijodiy taffakur, kompozitsion fikrlashning bo‘lishidir. Shuni nazarda tutish kerakki ya’ni san’atning yashovchan bo‘lishi uchun avvalo erkin kompozitsiyaning rivojlanishiga imkoniyat yaratish hisoblanadi. Aytishimiz mumkunki san’atni rivojiga to‘siq bo‘lish va ta’limni sustlashtirishning eng fundamental sharti erkinlikning bo‘lmasligidir. Bilamizki butun dunyoda ijodkorlar xususan rassomlar har bir davrda o‘zlarining ijodiy ustaxonalari va studiyalariga ega bo‘lishgan.

Tasviriy sana’t ta’limida ma’lum bir muammaolarni aytish va unga kompazitsion nuqtau nazardan pedagogik yechim nazarda tutiladi Bo‘lg‘usi rassom keljakda dars berishi bilan birga rivojlanishning yuksak bosqichlarda ham o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari shart. Yuksak, maromiga yetgan san’at asarlari bo‘ladimi, yoki kampyuter tehnologiyalari asosida zamonaviy turli sohaga oid loyihalar bo‘ladimi, undan tashqari sanoatning turli ishlab chiqarishlarida yangicha dizayndagi sanoat maxsulotlari bo‘lsin, albatta bu yerda rassom tafakkurining roli nihoyatda zarur.

Ma’lumki, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish va e’tibor beriladigan jihatlarni hisobga olishda, albatta ularga oid ta’lim tamoyillari zarur bo‘ladi. Ijodkor o‘qituvchilarga ta’lim berishda ularga mos nazariya va amaliyotdan foydalanish, bunda kompozitsiya vositalardan foydalanish eskiz materiallar va kompozitsiyaga doir ijodiy muhitni tarkib toptirish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga oid tizimini shakllantirishni ko‘zlab faoliyat yuritish, rassom o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning metodik ta’mintonini izchil yuksaltirib borish, ijodkor pedagoglarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida olib borilayotgan mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilarning erkin va mustaqil hamda

ijodiy fikrlashlariga keng imkoniyatlar yaratishga e'tibor berish, metod va texnologiyalarni ishlab chiqishda ulardan foydalanishning qulayligi va maqsadga erishishda kompozitsiya qoidalari ko'makchi bo'lishi ilmiy metodik jihatidan asoslanishi hamda ulardan amaliyotda foydalanishga sodda va tushunarli yo'riqnomalar tayyorlash ishlab chiqilgan va amaliyotda foydalanishda ta'lim jarayonlaridagi dars mashg'ulotlariga e'tibor berib pedagogik faoliyatni amalga oshirish kerak.

## XULOSA

Tasviriy san'at o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim mazmunini muntazam ravishda qiziqarli ma'lumotlar, san'at asarlarini qiziqarli jihatlari, boyitilgan hamda mukammallashtirilgan ta'limni tarkib toptirishga doimo e'tiborda bo'lish va bu borada ta'lim jarayonini amalga oshirishdan oldin ijodkor o'qituvchi mahoratini amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shundan keyingina o'qituvchi oldiga ijodiy jarayonni tarkib toptirish, ijodiy salohiyatga ega bo'lish, ijodiy faoliyatni shakllantirish kabi masalalarni qo'yish mumkin bo'ladi. Buning uchun innovatsion ta'lim muhitidan foydalanib yangi o'ziga xos kompozitsion yechim va yangiliklarni izlashi kerak. Oliy o'quv dargohida kompozitsiya fanining vazifasi sifatida talabalarda ijodiy fikrlashni, hayotni kuzata olish va obrazli tasavvur etish, umuman san'atni idrok etish va taxlil qila olishni, hamda ushbu jihatlarni pedagogik faoliyati davomida tadbiq qilishdir

Tasviriy san'at ustasining eng asosiy ijodiy faoliyati albatta uning erkin ijodiy tafakkuri hisoblanadi va uni ijodida ifoda etadi. Shuni inobatga olgan holda ijodiy muhitni yaxshilash uchun ayniqsa yoshlarga imkoniyat yaratib berish juda muhum hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Bakhriyev I.S. (2020). 50 YEARS OF THE XX CENTURY THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANDSCAPE GENRE. European journal and Reflection Sciences, 8(6), 62-64.
2. Bakhriev I. S., Ankabaev.R. T., Mahmudov M. J., & Irbutaeva M. T. (2020).THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE LANDSCAPE GENRE IN THE FINE ARTS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(3), 423-424.
3. Bakhriev I.S., Sultanov Kh.E., Marasulova I.M., & Ankabaev R.T. (2020). The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of

Continuous Education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6586-6591.

4. Бахриев, И. (2020). Ривоятларнинг санъат асарларида тутган ўрни ва унинг баркамол ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences, 286-295.
5. Бахриев, И. С. Султанов, Х. Э., Марасурова, И. М., Махмудов, М. Ж., (2020). НА ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ИЗ ОПЫТА РАБОТЫ. Academic Research in Educational Sciences, 1 (4), 231-237.
6. Baxriyev I.S. (2021). PROFESSIONAL PROFESSIONAL FINE ART TEACHERS THEORETICAL FUNDAMENTALS OF COMPOSITION IN PREPARATION. Муғаллим ҳэм узликсиз билимләндирү. Илимий-методикалық журнал. 3(2), 122- 125.
7. Baxriyev I.S. (2021). PROFESSIONAL PROFESSIONAL FINE ART TEACHERS TEACHING COMPOSITION IN PREPARATION STUDY OF THE PRACTICAL SITUATION. Муғаллим ҳэм узликсиз билимләндирү. Илимийметодикалық журнал. 3(2), 128-132.
8. Baxriyev I.S. (2020) STUDENTS IN HIGHER EDUCATION IN THE GENEALOGY WORK TRAINING AND PROFESSIONAL TRAINING STUDENTS IN HIGHER EDUCATION IN THE GENEALOGY WORK TRAINING AND PROFESSIONAL TRAINING, Мактаб ва ҳаёт. ISSN 2010-5460. SPECIAL LAST №2, 25-26
9. Bakhriyev.I.S.(2021) Composition and improvement of methodology of description in the professional training of future fine art teachers for pedagogical activity Galaxy Internationa Interdisciplinary Research Journal, 9(7),.60-62
10. Bakhriyev.I.S.(2021) The role of pedagogical technologies in teaching fine arts lessons. Galaxy Internationa Interdisciplinary Research Journal,
11. Bakhriyev.I.S (2021)THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF FINE ARTS. "Экономика и социум"
12. Bakhriyev.I.S (2021)PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING FINE ARTS LESSONS. "Экономика и социум"
13. Bakhriyev.I.S (2021)RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences 315-522.
14. I.S.Baxriyev RANGTASVIR ASARI ISHLASHDA KOMPOZITSIYA FANINING MUHUM AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences 315-322

15. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li (2020). The use and importance of the three-dimensional features of the auto cad program in drawing projects in public schools. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (3) Part II, 189-192.
16. Kukiev, B., O‘g‘li, N. N. & Shaydulloyevich, B. Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.
17. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Part II, 38-40.
18. Achilov Nurbek Norboy o‘g‘li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko‘kiyev Boburmirzo Baxodir o‘g‘li & Jumayev Isroil Omandovlat o‘g‘li (2020). Methods of developing creative abilities in children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (10) Part II, 151-153
19. Achilov N.N., Ko‘kiyev B.B., Bekqulov Q. Sh. YAQQOL TASVIRLARNI BAJARISHDA AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB LOYIHALASH Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимлендириў илимий методикалық журнали №2 2020 ISSN 2181-7138
20. Achilov N.N (202). CHIZMACHILIKDA ODDIY QIRQIMLAR BAJARISH ORQALI O‘QUVCHILARNING FAZOVIY TASA VVURINI SHAKLLANTIRISH. *Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимлендириў илимий методикалық журнали №2 ISSN 2181-7138*
21. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo‘jaqulov Elbek, Ko‘kiyev Boburmirzo CHIZMACHILIK VA CHIZMAGEOMETRIYA FANLARIDA BURCHAK TOPISHNING BAZI USULLARI
22. Achilov Nurbek Norboy Uglu Methods of Using Game Technologies in the Development of Lesson Effectiveness and Creative Abilities in Drawing Lessons International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192
23. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo‘jaqulov Elbek, Ko‘kiyev Boburmirzo (2020). CHIZMACHILIK VA CHIZMAGEOMETRIYA FANLARIDA BURCHAK TOPISHNING BAZI USULLARI. Физика математика фанлари журнали, 4(1), 47-52.
24. Mokhir, K., Nurbek, A., Qudrat, B., Elbek, K., & Boburmirzo, K. (2020). SOME METHODS OF FINDING ANGLE IN THE

SCIENCES OF DRAWING AND DRAWINGMEMETRY. JOURNAL OF PHYSICS AND MATHEMATICS, 4(1), 47-52.

25. Achilov, N. N. O. (2020). Maktablarda chizmachilik darslarini o'qitish metodlari va ularni tashkil qilish prinsiplari. Academic research in educational sciences, (3), 280-286.
26. Achilov, N. N. (2020). Develop students' spatial imagination by making simple cuts in drawing. Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимлендириў илимийметодикалық журнали № 2 2020 ISSN 2181, 7138.
27. Ugli, A. N. N., Saidazimovich, B. I., & Jabbarovich, M. M. (2020). MUHANDISLIK GRAFIKASIDA MULTIMEDIYANING TUTGAN O'RNI. Academic research in educational sciences, (4), 639-646.
28. Achilov, N. N. (2022). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Academic Research in Educational Sciences, 3(6), 650–654.
29. Achilov Nurbek Norboy ugli (2021). THE USE OF SIMPLE CLIPPINGS TO FORM A SPATIAL IMAGE. "Экономика и социум", 10(89), 1307-1312.
30. Achilov, N. N. (2020). METHODS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON USING VISUAL AIDS IN THE TEACHING OF DRAWING SCIENCE. Экономика и социум, (11), 35-39.